

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
1930



**«Tasdiqlayman»**  
BuxDU rektori  
O.X.Xamidov  
2025-yil



Ro'yxatga olindi № 1930  
2025-yil "\_\_\_" avgust

**TILSHUNOSLIK NAZARIYASI**

**O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200 000 – Санъат ва гуманитар фанлар  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 - Tillar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili)

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi  
**University of Oxford (3), University of Potsdam (51)** ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.  
(<https://www.ox.ac.uk/> <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam>)

Fan/modul kodi TN1112	O'quv yili 2025-2026	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Tilshunoslik nazariyasi	90	90	180

**1. Fanning mazmuni.**  
Mazkur mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar kelgusida ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi va, asosan, o'rta, o'rta maxsus ta'lim tizimida faoliyat olib borishini nazarda tutib, tilshunoslikning tarixi, tilning paydo bo'lishi, tillarning tasnifi, maktablari va oqimlar, til nazariyalari, metodlariga oid masalalarini chuqur o'rganishlari lozim. Tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tilga oid nazariyalari, tilshunoslik oldida turgan vazifalar, tilshunoslik yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida tarbiyalash zarur.

**Fanning maqsadi.** Bu fanning asosiy maqsadi talabalar dunyoqarashini yanada kengaytirishi tilshunoslik tarixi, tilning paydo bo'lishi, tillarning tasnifi borasida tafakkur doirasini mustahkamlash, mustaqil fikrlash doirasini o'rnatish, til nazariyasining dolzarb muammolarini chuqur o'rgatish, uning nazariy va amaliy masalalari bilan yaqindan tanishtirishdir.

**Fanning vazifasi** sifatida talabalarga til, uning shakllanishi, tilning paydo bo'lishi, tillarning tasnifi, tilshunoslik maktablari va oqimlari haqida bilim berish hamda ushbu bilimlarni amalda qo'llay olish malakasini shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra mazkur kurs talabalarining umumlingvistik tayyorgarligi, bilim doirasini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish vazifasini qo'yadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**  
**1-mavzu: "Tilshunoslik nazariyasi" kursining maqsadi, predmeti va vazifalari**

Fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar. Kursning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati. «Tilshunoslikka kirish» hamda «Umumiy tilshunoslik»ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyati haqida.

Tilning jamiyatdagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi munosabat,

tilning jamiyatdagi ko'rinishlari: me'yoriylashtirilgan va mahalliy tillar, kreol va pijin tillari. Til va tafakkur munosabati, til birliklarining tafakkur birliklari bilan o'zaro munosabati. Tilshunoslik fani bo'limlari, til sathlari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik. Til birliklarining mazmun mohiyati. Tilshunoslikka oid tushunchalarni ifodalovchi faol terminlarning mazmun mohiyati.

Tilshunoslikning qadimgi asrlarda shakllanishi. O'rta asrlarda Evropa va Sharq tilshunosligining yuzaga chiqishi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi. Umumiy tilshunoslik faniga asos solinishi. "Yosh grammatikachilar" maktabining lingvistik qarashlari. F.de Sossyur ta'limoti va strukturalizm. Praga lingvistik maktabi dunyoqarashi. Neolingvistikaning shakllanishi. Glossematika maktabi ta'limoti. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi.

**2-mavzu: Tilshunoslik tarixi**

Jahon tilshunosligi tarixi va o'zbek tilshunosligi. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy boqichlari. Qadimgi asrlarda tilshunoslik. Qadimgi hind, grek, lotin va xitoy tilshunosligi. Panini tadqiqotlari. Aleksandriya grammatika maktabi (Dionisiy). Qadimgi Rim tilshunosligi (Varron). Qadimgi Xitoy lug'atlari (Fan'yan). Qadimgi tilshunoslik va bugungi kun muammolari.

O'rta asrlarda tilshunoslik. Arab tilshunosligi tarixidan. Mahmud Koshg'ariy va uning lisoniy qarashlari. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari. O'rta asr tilshunosligi va bugungi kun muammolari. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi.

XIX va XX asr tilshunosligi. qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. F. Bopp, aka-uka Shlegellar, A. Shleyxer, V. Gumboldt, R. Rask, «Yosh grammatikachilar» (Brugman, Paul).

Qozon maktabi (Boduen de Kurtene). F. de Sossyur, V. Pizani, J. Jileron, Sh. Blumfild, P. Tradgill, N. Xomskiy, B.A. Serebrennikov, V. Vinogradov, V. Jirmunskiy).

**3-mavzu: Tilshunoslik maktablari. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati.**

Umumiy (universal) grammatika maktabi. Sossyurianizm. Funktsionalizm. Glossematika. Neolingvistika. "Por-Royal" grammatikasi (K.Lanslo va A.Arno). F.de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari. Til va nutq. Sinxroniya va diaxroniya. Praga lingvistik maktabi (funktsionalizm). Kopengagen maktabi: L. Elmslev, X. Uldall. Me'yorning inkor etilishi, uzus va nutq faoliyati (akti)ning absolyutlashtirilishi. Neolingvistika. Bonfante, Bartoli, Pizani ta'limoti.

#### 4-mavzu: Til va jamiyat.

Tilning ijtimoiy tabiati. Muloqot ehtiyoji va til. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi. Yozuv va savodxonlik muammolari. Me'yor masalasi. Tilning ijtimoiy differentsiatsiyasi. Og'zaki va yozma nutq. Adabiy til. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'siri. Sotsiolingvistikaning bugungi masalalari. Me'yorlashirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar. Pijin tillari. Tillarning chatishuvi masalasi. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.

#### 5-mavzu: Til va tafakkur<sup>1</sup>.

Til va tafakkur. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida. Fikrning shakllanishida tilning roli. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati. Til va tafakkur bog'liqligi.

Tafakkur va terminologiya. Terminologiya tushunchaviy yukka ega ifoda. Lisoniy did. Psixolingvistika. Reklama tili. Til va mafkura. Til siyosati.

#### 6-mavzu. Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi

Dunyo tillari. Qadimiy tillar. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Agglutinativ, flektiv tillar.

#### 7-mavzu: Tilning semiotik tabiati.

Semiotika nima? Ijtimoiy informatsiyaning moddiy tashuvchilari haqida ma'lumot. Tilga belgi sifatida yondashuvning F. de Sossyur ta'limga shakllanishi. Lisoniy belgi tushuncha va moddiy talaffuz birligi sifatida. il sathlari. Tilning fonetik-fonologik sathi. Lug'at sathi. Grammatik sath. Til birliklarning alohida tizim sifatida o'zaro munosibligi.

#### 8-mavzu. Til va nutq munosabati<sup>2</sup>

Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati, og'zaki va yozma nutq. Og'zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari.

Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida tizim sifatida

<sup>1</sup> Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi University of Oxford (3), University of Potsdam (51) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. (<https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.uni-potsdam.de/en/university-of-potsdam>)

<sup>2</sup> Teresa M., C.Castellvi. Terminology: Theory, methods and applications, John Benjamins Publishing, 1999. - 248 p.; Do corpus-based electronic dictionaries replace concordancers? Experience, experiments, evaluation. (B. Morrison, G. Green, & G. Motteram, eds.). - Hong Kong: Polytechnic University, 2003. - Pp. 179-206; [Svensén B. A Handbook of Lexicography. The Theory and Practice of Dictionary-Making. - Cambridge: Cambridge University Press. 2003 // https://www.amazon.com/Handbook-Lexicography-Theory-Practice-Dictionary-Making/dp/0521708249](https://www.cambridge.org/9780521708249)

o'zaro munosibligi.

Lisoniy paradigma. Til birliklari ortasidagi paradigmatik munosabatlar. Til birliklari o'rtasidagi iyerarxik munosabatlar. Til birliklari aranjirovkasi.

#### 9-mavzu. Yozuv - madaniy taraqqiyot mahsuli

Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

O'zbek xalqining yozuv tarixi. Alifbo va imlo masalasining davlat ahamiyatiga molik ekanligi.

#### 10-mavzu: Til strukturasi.

Fonetika. Tovushlar tizimi. Nutq tovushlarining tasnifi. Fonema nazariyasi. Diskret bo'lmagan fonetik birliklar. Bo'g'in, urg'u. Fonologiya asoslari.

Til birliklari va nutq birliklari. Til umumiy, nutq xususiy hodisa sifatida. Nutqiy imkoniyatlar. Nutq faoliyati, og'zaki va yozma nutq. Psixologik tilshunoslik nutq faoliyati va so'zlash jarayonini o'rganuvchi soha sifatida.

Grammatika. Grammatika kategoriyalar. Grammatikaga oid zamonaviy ta'limotlar. Semantika. Semantik kategoriyalar.

Tillarning tipologik tasnifi. Til tiplari haqida ma'lumot. Til tiplarining asosiy belgilari. Morfologik shakllarning xilma-xilligi. Tillarning morfologik tipologiyasi.

Morfologik tasnif. Izolyativ (ajratuvchi) tillar. Inkorporativ (polisintetik) tillar.

Geneologik tasnif. Agglutinativ tillar. Flektiv tillar. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi munosabat.

#### 11-mavzu: Lisoniy tadqiqot metodlari.

Lingvogenetik tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, metodlar, rekonstruksiya usullari, miqdoriy metodlar, transformatsion metod). Areal tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik, metakartografik, statistik metodlar, kadastrlash usuli). Tipologik tadqiqot metodlari (qiyosiy universal lingvistik usul sifatida, izomorfizm va allomorfizm). Distributiv metod. Transformatsion metod.

#### 12-mavzu: Amaliy tilshunoslik.

Axborot xizmati (kutubxona, arxiv, devonxona, radio, televidenie,

matbuot, kompyuter, tarmog'i). Hujjatshunoslik. Lingvistik informatika. Referatlash. Lug'atchilik. Avtomatik boshqaruv tizimi. Avtomatik tajima muammolari.

### III. Amaliy, seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

#### Amaliy mashg'ulotlar:

1. Qadimgi tilshunoslik.
2. Xitoy va hind tilshunosligi.
3. Yunon tilshunosligi.
4. Arab tilshunosligi.
5. O'rta Osiyo tilshunosligi.
6. Til va jamiyat. Me'yorlashirilgan tillar.
7. Adabiy til va shevalar.
8. Kreol tillar.
9. Pijin tillari.
10. Tillarning chatishuvi masalasi.
11. Millatlararo tillar.
12. Xalqaro tillar.
13. Sun'iy til. Esperanto.
14. Til va tafakkur. Til fikr ifodasi va fikr manbayi sifatida.
15. Til va nutq munosabati. Til birliklari va nutq birliklari.
16. Til - ramzlar tizimi.
17. Til sathlari; tilning fonetik-fonologik sathi.
18. Lug'at sathi.
19. Grammatik sath. Til birliklarning alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi.
20. Nutqning fonetik bo'linishi. Nutq jarayonidagi o'zgarishlar.
21. Frazalar, takt, sintagma. Til jarayonidagi fonetik o'zgarishlar. Morfologik qayta bo'linish.
22. Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
23. Yozuv va uning tarixiy ko'rinishlari. Arab grafikasi, lotin yozuvi, kirill alifbosi.
24. Gap bo'laklarini ajratish metodi.
25. Tilning ijtimoiy tabiati. Tilning ijtimoiy voqelik sifatidagi ko'rinishlari. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar.
26. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy bosqichlari.
27. Tilshunoslik maktablari.
28. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati.
29. Til strukturasi. Fonetika va fonologiya muammolari.

29. Grammatika va grammatik ta'limotlar.
30. Leksika. Semantika va semantik kategoriyalar.
31. Terminologiya.
32. Tilshunoslik metodlari.
33. Lisoiy tadqiqotlarga xos paradigmalari.
34. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va dolzarb muammolari. Sotsiolingvistikasi. Paradigmatika, pragmatika, lingvokulturologiya.
35. Kompyuter lingvistikasi. Etnolingvistikasi.
36. Umumiy tilshunoslikka oid so'nggi izlanishlar.
37. Tilning ijtimoiy tabiati.
38. Tilning muloqot funksiyasi.
39. Tilning belgisi tizimi va ijtimoiy hayot.

#### Seminar mashg'ulotlari:

#### Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.
2. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida.
3. Til birliklari va nutq birliklari.
4. Til sathlari; tilning fonetik-fonologik sathi.
5. Tilning lug'at sathi. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.
6. Til birliklarning alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi.
7. Til jarayonidagi fonetik o'zgarishlar.
8. Yozuv va uning tarixiy ko'rinishlari. Gap bo'laklarini ajratish metodi.
9. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar
10. Tilshunoslik tarixi.
11. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy bosqichlari.
12. Tilshunoslik maktablari.
13. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati.
14. Til strukturasi. Fonetika va fonologiya muammolari.
15. Grammatika va grammatik ta'limotlar.
16. Lingvistik tahlil metodlari.
17. Lisoiy tadqiqotlarga xos paradigmalari.
18. Costiolingvistikasi. Til va jamiyat munosabatlari.
19. Kompyuter lingvistikasi. Etnolingvistikasi.
20. Umumiy tilshunoslikka oid so'nggi izlanishlar.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'limning bosh maqsadi magistratura talabalarining o'quv

fani asosida olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkurni o'stirish, o'z ustida ishlash va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat.

#### IV.1. Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar

Talabalar fan bo'yicha o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o'zlashtirib, internet saytlaridagi manbalardan o'rinli foydalanib, mustaqil ta'lim topshiriqlari, shuningdek, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha referat tayyorlash.
5. Amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun taqdimot tayyorlash.

#### IV.2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilning fonemalar tizimi. Fonema nazariyasi tarixidan.
2. Fonemalar haqida turli fonologik maktab vakillarining fikrlari (N.S. Trubestkoy, L. V. Shcherba qarashlarini o'rganish).
3. Leksemaning semantik tabiati; teksema va semema.
4. Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari.
5. Lug'aviy birliklarning qo'llanish doirasiga ko'ra guruhlantirish: iste'mol doirasi chegaralangan va keng iste'mol qatlami.
6. Terminologiya. Terminlar mohiyati.
7. Frazemalarning semantik turlari: omonim, sinonim, antonim iboralar.
8. Grammatika tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi soha sifatida. Morfologiya va sintaksis.
9. Morfemika morfologiyaning bir bo'lmi sifatida. Grammatik ma'noni ifodalovchi vositalar.
10. Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari. (Yusuf Xos Hojib, Koshg'ariy, Navoiy...).
11. Til oilalari: Hind-Evropa tillar oilasi; Roman tillari.
12. "Umumiy tilshunoslik" kursining asosiy masalalari.

	<p>13. O'rta asrlarda Sharq va Evropa tilshunosligi.</p> <p>14. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi.</p> <p>15. Yosh grammatiklar yutuqlari va kamchiliklari.</p> <p>16. F.de Sossyur ta'limoti va strukturalizm.</p> <p>17. Neolingvistik.</p> <p>18. Praga lingvistik maktabi ta'limotida fonologiyaning o'rni.</p> <p>19. Glossematika maktabi ta'limoti.</p> <p>20. Sostiolingvistika.</p> <p>21. Amerika deskriptiv lingvistik qarashlari.</p> <p>22. Psixolingvistik.</p> <p>23. Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari.</p>
<p>3.</p>	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• fan va uning nazariy masalalari; nutq, madaniyat, notiqlik, uslubiyat, mezon, me'yor to'g'risida aniq tasavvur va bilimga ega bo'ladi;</li> <li>• fanning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish va lingvistik masalalarni ilmiy tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi;</li> <li>• o'quv fani yakunida nutq madaniyati va uslubiyat asoslariga oid tushunchaviy-terminologik apparat bilan ish yuritish hamda lingvistik tadqiqot olib borish malakasini egallaydi.</li> </ul>
<p>4.</p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p>5.</p>	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</b></p> <p>Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish, amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dalilli va to'g'ri aks ettira olish, lingvistik masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalash, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlariga doir vazifalarni – test yoki yozma ish topshiriqlarini bajarish lozim.</p>

6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari ucun darslik. -T., 2010. - 214 b.</li> <li>2. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2007.</li> <li>3. Расулов Р. Умумий тилшунослик. (Тилшунослик тарихи). Ўқув қўлланма. 1-2-қисм. -Т. 2007. - 256 б.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Неймагов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. -Т., 1992.</li> <li>5. Неймагов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Т., 1993</li> <li>6. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдиэлари ва йўналишлари. Андижон. 2006.</li> <li>7. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. Труды по общему языкознанию. М. 1977.</li> <li>8. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. -Т., 2002.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Elektron manbalar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>10. <a href="https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Umumiy%20tilshunoslik%20(Ravshanxo'ja%20Rasulov).pdf">https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Umumiy%20tilshunoslik%20(Ravshanxo'ja%20Rasulov).pdf</a></li> <li>11. <a href="https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Tilshunoslik%20nazariyasi%20(Nosirjon%20Uluqov).pdf">https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Tilshunoslik%20nazariyasi%20(Nosirjon%20Uluqov).pdf</a></li> <li>12. <a href="https://library.samdu.uz/download/8376">https://library.samdu.uz/download/8376</a></li> </ol>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi BuxDU o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil " _____dagi _____sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Modul/fan uchun mas'ullar:</b></p> <p><i>[Signature]</i> B.E.Kilichev – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc).  <i>[Signature]</i> G.I.Toirova– BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc).</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>M.Q.Abuzalova – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc).  B.P.Zaripov – NavDPI o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>